

**FIZIK OLIMLARNING FIZIKA FANINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA TARBIYA FANI
DARSLARIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Buxoro viloyati Kogon tumani 15-umumta'lim maktab fizika fani o'qituvchisi

Kamolova Zarnigor Mardonovna

Tarbiya fani o'qituvchisi

Xayrullayeva Shahnoza Boboqulovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fizik olimlarning fizika fanini rivojlantirishdagi o'rnini, fizika fanini rivojlanish tarixi o'rganish bosqichlari, vazifalari, rivojlanishidagi fanlar bilan bog'liqligi, tarbiya fani darslaridagi tarbiyaviy ahamiyati, umum ta'lim maktablarida tarbiya fani taraqqiyoti negizi haqida batafsil bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *fizika, analitik ma'lumot, tarbiya, tarbiyaviy ahamiyat, jamiyati taraqqiyoti.*

KIRISH

Tabiiy fanlar o'zining rivojlanish jarayonida inson faoliyatiga borgan sari tabiat bilan bog'liq. Ma'lumki fizikaviy jarayonlarni, asosan, ikki usul bilan kuzatish-tajriba va fikrlash yo'li bilan o'rganish mumkin. Ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlarga faqat bilim berishda o'quvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olganda erishish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarda bolalar psixologiyasiga tegishli bilimlar yetarli bo'lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi XX asr fizika -texnologiyasi asri ekanligi hech kimga sir emas albatta. Zamon kun sayin rivojlanib bormoqda, bundan ko'rinadiki fizika hayotimizni har bir jabhasiga asta-sekin kirib kelmoqda. Lekin hozirgi zamon yoshlarning hammasi ham fizika hayotimiz asosini tashkil qilishini tushunib yeta olmaydi. Fizikani faqat formulalardan iborat fan sifatida qabul qilishadi, bu bizning og'riqli nuqtalarimizdan biridir.

NATIJALAR:

Har qanday bilimning rivojlanish jarayonini o'rganish alohida bir fan - tarix fanining asosiy masalasini belgilaydi. Shu jumladan fizika fani rivojlanish tarixi, fan tarixining bir bo'lagini tashkil qilib, u fizika fanining rivojlanishi jarayonini o'rganadi. Har qanday fanning asosiy vazifasi shu fan shug'ullanayotgan sohada amalda bo'lgan qonunlarni ochishdan iborat bo'lganligi kabi fizika tarixi fanining ham vazifasi fan rivojlanishini boshqaruvchi qonunlarni yaratishdan iborat. Tashqaridan bir ko'rishda fan tarixi buyuk daholarning nazorat qilib bo'lmaydigan faoliyatlari natijasiga o'xshab ketadi. Albatta ular faoliyatini

tabiatda yuz beruvchi biror harakat qonunlariga o'xshash qolipdagi qonunlarga o'xshatib bo'lmaydi

MUHOKAMA:

Insonning ma'naviyati uning ongida aks etgan barcha ijobiy ruhiy, intellektual fazilatlar, axloq esa umuminsoniy va millatning milliy qadriyatlari asosida jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-atvor me'yorlari majmuasi sanaladi. Barkamol shaxsni kamolga yetkazishda ma'naviy-axloqiy yetuklik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, isloh qilishning yo'nalishlaridan biri "milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish" deb belgilangan.

O'zbek xalq ijodi yodgorliklari- bizning ham tarixiy ham ma'naviy, ham madaniy, ham huquqiy me'rosimizdir. Yosh avlodning huquqiy savodxonligini amalga oshirish estetik tarbiya, ekologik tarbiya, mehnat tarbiyasi aqliy va axloqiy tarbiya ham ushbu fan majmuasida o'z aksini topadi. Bola tarbiyasining asosini oila u katta bo'layotgan muhit uning atrofidagi insonlarning o'zaro bir-biriga bo'lgan muomalasi asosida shakllanadi.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, pedagoglar va ota-onalar hamkorlikda ish olib borishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Hozir biz yashayotgan davr axborot texnologiyalar davri bo'lib har jihatdan bola tarbiyasiga har tomonlama o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuni e'tibordan chetda qoldirmasdan ota-onalari har doim farzandlarining ta'lim tarbiyasi yuzasidan o'qituvchilari bilan muloqotda bo'lishi, farzandining maktabda, jamoatchilik o'rtasida o'zini tutishi odob axloqi, o'rtoqlari va ustozlari bilan munosabatini muntazam nazorat qilib borishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'rta maktab bitiruvchilarini fizika fanidan tayyorlash sifatini baholash. / V.A. Korovin, V.A. Orolov. - M.: 2001.
2. Ta'lim muassasalarining dasturlari. Fizika. Astronomiya / Y.I.Sharipov.A. - M.: Ma'rifat, 2000
3. Baydedayev A., Mamadazimov M., Djorayev M va boshq. Maktabda fizika va astronomiya o'qitish. Metodologik va dunyoqarash aspektlari. - T.: O'qituvchi, 2004.
4. Abduqodirov A.A, Pardayev A "Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyati". -T., "Tafakkur". 2014.